

## **XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGINING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATLI QIRRALARI**

*Buxora davlat universiteti*

*1-kurs magistranti*

*Ashurov O'Imasbek*

### **Annotatsiya**

Maqolada yoshlarning ta'lim tarbiya tizimida musiqiy tafakkurning xalq cholg'ulari misolida namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Undan tashqari yoshlarning musiqiy qobiliyatini yana oshirish maqsadida ularga beriladigan birlamchi ko'nikmalar yoritiladi.

### **Аннотация**

В статье предполагается проявление музыкального мышления в системе образования молодежи на примере народных инструментов. Кроме того, будут освещены основные навыки, которые даются молодым людям с целью повышения их музыкальных способностей.

### **Annotation**

The article assumes the manifestation of musical thinking in the educational system of young people as an example of folk instruments. In addition, the primary skills given to young people in order to increase their musical ability will be highlighted.

**Kalit so'zlar:** *ta'lim tarbiya, qobiliyat, xalq cholg'ulari, gamma, etyud, ijro ko'nikmasi.*

Bugungi kunda yoshlarimizga musiqiy ta'lim-tarbiya berishdan ko'zlaniladigan maqsad, o'zbek xalq va boshqa xalqlar musiqasini, jahon mumtoz kompozitorlarining asarlarini har taraflama chuqur va savodli o'rgatish, xalq cholg'ularida ijrochilik ko'nikmalarini hozirgi zamon yangi-yangi uslublari bilan boyitishdan iboratdir. Xalq cholg'ulari nihoyatda rang-barang va xilma-xilligi tufayli o'ziga xos shirador, yoqimli tovushlari bilan alohida ajralib turadi.

Respublikamizda jumladan, milliy qadriyatlarning targ'ibotiga, milliy cholg'ularning o'rganilishiga keng o'rin berilishi bejiz emas, chunki «Respublikada musiqiy ta'limning madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida» (1996, 31 dekabr), «Ta'lim to'g'risida» (2020, 23 sentabr), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» (1997, 29 avgust), va bir qator Qonun va farmonlarda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon mezonlari darajasiga ko'tarish, yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida ularni

Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quv maskanlarida o'qitilayotgan har bir fanning asosini tashkil etilishi uqtirilgan.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni o'z ixtisosligi bo'yicha fanni mukammal egallagan, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan barkamol inson qilib tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridandir.

Yuqoridagi davlat xujjatlaridan kelib chiqib respublikamiz olimlari, uslubiyotchilari, tajribali o'qituvchilari har bir fanga yangicha yondashib o'quv rejalarini, dasturlarni, darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni qayta ishlab takomillashtirmoqdalar, jahon andozalariga yaqinlashtirish ustida ish olib bormoqdalar.

Xalq cholg'ularida ijro etishni egallash nozik va ma'suliyatli vazifa ekanligi hammamizga ma'lum, shuning uchun xam o'qituvchi-ustoz o'z shogirdlarining yoshi, xarakteri, bilim doirasi, tajribasini hisobga olgan holda birinchi darsdanoq mustaqil ijodiy mehnatga, fikrlashga o'rgatib borishi zarur. Buni muvaffaqiyatli bajarish uchun ota-onalar, boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur. O'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishda nazariy va amaliy ishlarni birgalikda olib borilishi ijobiy natija beradi. O'qituvchi shoshilmay, o'quvchisi bilan cholg'uda tovush chiqarish madaniyatini shakllantirib borishiga, pardalar ustida barmoqlarning to'g'ri va erkin harakatlanishiga e'tibor qaratmog'i lozim. Dastlabki ijro ochiq torlarda oddiy zarblar bilan boshlanmog'i va asta-sekin murakkablashmog'i, nazariy bilim, amaliy ko'nikma bilan mustahkamlanishi kerak. O'quvchilarga o'rganayotgan cholg'usi haqida tushuncha berishi, cholg'ularning takomillashtirilganligi xususida gap yuritilishi albatta foydadan holi bo'lmaydi. Ijrochilik san'ati takomillashib, tobora rivojlanib borishi, cholg'ular uchun yangi-yangi maxsus asarlar yaratilishi, ijrochilar repertuaridan jahon mumtoz kompozitorlari asarlarining o'rin olishi, ushbu cholg'u uchun dastur tanlashda katta imkoniyat beradi va bu esa o'z navbatida yosh ijrochilarni tarbiyalashda, texnik mahoratlarini oshirishda, katta ahamiyatga egadir.

Buning uchun doimiy ravishda mashq, gamma, etyudlardan foydalanib borish, o'quvchilarning badiiy asarlarni o'zlashtirishida yengillik tug'diradi, ijro malaka va ko'nikmalarini oshiradi.

Ixtisoslik fanining o'qituvchisi, o'quvchisiga o'quv jarayonida musiqaga bo'lgan havasni o'stirishi, musiqiy va nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga e'tibor berishi, shuningdek, ularga ijrochilik san'atining yuksak ijtimoiy rolini tushuntirishi zarur. O'quv materialini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonini aniqlik bilan tashkil qilish, o'quvchilarning ijrochilik qobiliyati va mahoratini muvaffaqiyatli ravishda o'stirishga yordam beruvchi muhim omillardandir. O'quv materiali o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, musiqiy iqtidori va ijrochilik ko'nikmalari jihatidan umumiy o'sish darajasiga mos bo'lmog'i lozim.

O'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri, o'quvchilarning badiiy va texnik ijrochilik imkoniyatlarini nazarda tutib, ularga aniq topshiriqlar berib borishi, ularning bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilishi, gamma, arpedjio, mashq va etyudlar ustida o'quv yili davomida ish olib borishi, turli zarblar, dinamik, ritmik variantlarni qo'llashi tavsiya etiladi. O'qituvchi o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlar ekan, ularning musiqiy saviyasini har tomonlama kengaytirishi, ijodiy faolligini oshirishi, o'rganilishi shart bo'lgan asarlardan tashqari turli musiqiy adabiyotlar bilan ham tanishtirib borishi kerak, shuningdek. mustaqil tahlil qila olish malakalarini o'stirishi talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan fazilatlariga erishishda, ko'p yillik tajribamizga tayangan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish ishida o'quv-tarbiyaning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb. hisoblaymiz:

- cholg'uda ijro etish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni shakllantirish;
- ijro asoslarini o'zlashtirish ishini cholg'uda bevosita bajarish;
- o'qituvchi va o'quvchilarni samarali faoliyat ko'rsatishiga erishish;
- mashhur sozandalar ijrosi bilan tanishtirish;
- o'quvchilar bilimlarini nazorat qilib, yutuq va kamchiliklari ustida doimiy ish olib borish va shularga o'xshash tadbirlar amalga oshirish kerak bo'ladi.

O'qituvchi har bir mashg'ulotda faqat amaliyot bilan cheklanmay, uning nazariy va tarbiyaviy tomoniga katta ahamiyat berishi, kuy va ohang vositasida o'quvchining didi, go'zallikka intilish, nafosat, ona Vatanga muhabbat, atrof-muhitni asrash, kattalarga hurmat ko'zi bilan qarash kabi hislatlarni shakllantirib borishi zarur. Berilgan har bir musiqiy asarni o'rganish jarayonida mehnat qilish, qiyinchiliklarni yengish, yangi asarlarni mustaqil o'rganish qobiliyatini o'stirish va o'z mehnatidan zavqlana olish bilan birga atrofdagilar mehnatiga ham munosib baho bera olish, qadrlash hissini uyg'ota olish o'qituvchidan yuqori darajali mahoratni talab etadi.

Shu xislatlarga ega bo'lgan o'quvchi nafaqat komil inson, mohir san'atkor, sozandagina bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim olayotgan yoshlarning har birida intilish hosil qilishi kerak. Bizning asosiy maqsadimiz, zamonamizni yuksak talablariga javob beradigan munosib mutaxassislar yetishtirish. Aqlli va e'tiqodli, vazmin, ulug'vor va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlariga xos ahloqiy pok, chuqur bilimli xalq cholg'ularida ijrochilik saviyasini yuqori darajada o'zlashtirgan oqilu-fozil, mohir sozanda-ijrochilarni tayyorlashga e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim.

Bugungi kunda, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining shakllanishi, an'anaviy va yangi yo'nalishdagi ijrochilik uslublari munosabatlari chambarchas bog'liqlik bilan hamda bir-birini to'ldirgan holda rivojlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kungacha qilingan ishlarimiz, erishgan yutuqlarimiz dengizdan bir tomchi deb hisoblaymiz. Yosh avlod orasida ilm-fanga, madaniyat va san'atga chanqoq, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining dovruq'ini jahonga taratadigan ishtiyoqmand aqliy salohiyat egalari oramizda ko'p. Orzu niyatlarimizni ro'yobga chiqarishda yoshlarimiz uchun shart-sharoitlar yaratish, musiqa maktablari, bilim yurtlari va oliy ta'lim o'qituvchilarining birinchi navbatdagi vazifalaridir. Kelajak avlodga musiqiy san'atimizning taqdirini topshirish uchun halol mehnat qilishimiz kerak, ijrochilik san'ati masalalariga e'tiborimizni tobora kuchaytirishimiz kerak, jaxon andozasi talablariga javob beradigan musiqiy daholarni tarbiyalab yetishtirishimiz bizning eng muhim majburiyatlarimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Liviyeu. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. "Bilim". T., - 2005y. – 159 b
2. Sh. Rahimov, A. Lutfullayev. Cholg'ulashtirish. "Musiqqa". T.,- 2010y. – 120 b.
3. Петросянц А. Инструментоведение (узбекские народные инструменты). Ташкент. 1980, 1990
4. Берлиоз Г. О современной инструментовке и оркестровке. I—II т. М., 1972.